

HUMANS

«HUMANS»NING SODIQLIK DASTURI

2023 yil 21 martda qilingan tahrir

«Humans»ning ushbu Sodiqlik dasturi «Humans»ning «Tovar va xizmatlar vitrinasi» servisidan foydalanish Qoidalarining ilovasi va ajralmas qismi hisoblanib, «Humans» MChJ tomonidan, manzil: O'zbekiston Respublikasi, 100047, Toshkent sh., Yashnobod tumani, Mahtumquli ko'ch., 2 b uy, STIR 306 624 856, telefon: 1234 (keyingi o'rinlarda «Humans» deb ataladi), nomuayyan shaxslar doirasiga qaratilgan bo'lib, Mijoz quyida bayon qilingan tartibda uni qabul qilgan vaqtdan boshlab Mijoz hamda «Humans» o'rtasidagi kelishuvga aylanadi.

1. ATAMALAR

1.1. Aksiya - Dastur doirasida o'tkaziladigan, Ishtirokchilarning «Humans» va Hamkorlarga bo'lgan sodiqligini shakllantirish va oshirishga yo'naltirilgan, uning doirasida Ishtirokchiga ma'lum xatti-harakatlarni (shartlarni) bajarishda Bonuslar olish taklif etiladigan marketing va/yoki reklama tadbiri. Aksiyani ishga tushirish, uning shartlari, amal qilish muddati, cheklovlari to'g'risida qaror «Humans» tomonidan bir tomonlama tartibda qabul qilinib, saytda va (yoki) Mobil ilovada joylashtiriladi.

1.2. Bonus - Aksiya doirasida va uning shartlariga muvofiq «Humans» belgilagan harakatlarni amalga oshirganlik uchun «Humans» tomonidan belgilangan shartli birliklar miqdorini Ishtirokchining Keshbek hisobiga o'tkazish.

1.3. «Humans» bilan aloqa xizmatlari to'g'risidagi shartnoma - Ishtirokchi va «Humans» o'rtasida aloqa xizmatlarini ko'rsatish to'g'risidagi shartnoma, «Humans» aloqa xizmatlarini ko'rsatish shartlarini qabul qiluvchi Ishtirokchi tomonidan tuzilgan, matni Saytda joylashtirilgan.

1.4. Keshbek hisob – Ishtirokchi foydalanishi mumkin bo'lgan Keshbek va Bonuslar miqdori aks etgan «Humans»dagi tahliliy hisobga olish registri.

1.5. Keshbek – To'lov amalga oshirganlik uchun «Humans» tomonidan belgilangan shartli birliklar miqdorini Ishtirokchining Keshbek hisobiga o'tkazish (turli yuridik shaxslar/yakka tartibdagi tadbirkorlar tomonidan Ishtirokchiga sotilgan tovarlar, ishlar, xizmatlar, intellektual faoliyat natijalariga bo'lgan huquqlar uchun Bank kartasi orqali to'lash.)

1.6. Rag'batlantirish – «Humans» tomonidan realizatsiya qilinadigan, jumladan kelajakda realizatsiya qilinishi rejalashtirilgan tovar va xizmatlar uchun noyob takliflar, shuningdek Ishtirokchi Keshbek hisobidagi mablag'lar evaziga qo'lga

kiritishi mumkin bo'lgan «Humans»ning tovar va xizmatlariga bo'lgan chegirmalar. Rag'batlantirishga ega bo'lish uchun zarur bo'lgan Keshbek va (yoki) Bonuslar miqdori va Rag'batlantirishlar turi sayt va (yoki) Mobil ilovada «Humans» tomonidan belgilanadi.

1.7. Bank kartasini bog'lash – Mijozning Mobil ilovada o'zining Bank kartasi (Bank kartalari) rekvizitlarini hamda O'zbekiston Respublikasidagi har qanday mobil aloqa operatori tomonidan unga ajratilgan mobil telefon raqamiga yo'llangan bir martali kodni kiritish orqali karta bog'lashni tasdiqlash bo'yicha qilingan xatti- harakatlari.

1.8. Dastur – «Humans»ning ushbu Sodiqlik dasturi.

1.9. Dastur ishtirokchisi (Ishtirokchi) – o'ziga tegishli bo'lgan Bank kartasini Mobil ilovaga bog'lashni amalga oshirgan Mijoz.

1.10. Ushbu Dasturda ishlatiladigan boshqa atamalar «Tovar va xizmatlar vitrinasini» servisidan foydalanish Qoidalarida belgilangan ma'noda qo'llaniladi.

2. DASTURDA QATNASHISH

2.1. «Humans»ning «Tovar va xizmatlar vitrinasini» servisidan foydalanish Qoidalarini qabul qilgan va Bank kartasini Mobil ilovaga bog'lashni amalga oshirgan har bir mijoz Dastur Ishtirokchisiga aylanishi mumkin. Ilk marta Keshbek yoki Bonus o'tkazilgan vaqtdan boshlab ularning miqdori Ishtirokchiga Mobil ilovada ko'rina boshlaydi.

2.2. Dasturda qatnashish bepul.

2.3. Ishtirokchining Bank kartasini bog'lash bo'yicha amalga oshirgan harakatlari uning Dastur bilan to'liq va e'tirozsiz rozi ekanligini anglatadi.

2.4. Dasturda qatnashishda Ishtirokchi Aksiya shartlari, Mobil ilova va (yoki) Saytdagi Bonuslar va Keshbek o'tkazib berish va ulardan foydalanish tartibi bilan tanishib chiqishi shart.

2.5. Quyidagi hollarda dasturda qatnashish to'xtatiladi:

- «Tovar va xizmatlar vitrinasini» servisidan foydalanish Qoidalariga muvofiq Servisning amal qilishi to'xtaganida;
- ushbu Dastur shartlariga muvofiq Ishtirokchi Dasturdan chiqarib tashlanganida;
- «Humans» tomonidan Dasturning amal qilishi muddatidan oldin tugatilganida;
- «Humans» bilan aloqa xizmatlarini taqdim etish bo'yicha Shartnoma bekor qilinganida.

2.6. Mobil ilovada Ishtirokchi tomonidan amalga oshiriladigan barcha xatti-harakatlar Ishtirokchining o'ziga tegishli harakatlar hisoblanadi.

2.7. Keshbek va Bonus «Humans»ning Mobil ilovasi va Servisining tarqalishini oshirish uchun mo'ljallangan rag'batlantiruvchi tadbir hisoblanib, ularga jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig'i solinmaydi.

3. KESHBEK VA BONUS TAQDIM ETISH TARTIBI

3.1. «Humans» Ishtirokchi tomonidan To'lov amalga oshirilganida, shuningdek Aksiya shartlari bajarilganida Bonuslar taqdim qiladi. Shuningdek «Humans» yangi Ishtirokchilar uchun Bank kartasini bog'lashda Bonuslar belgilashi, shuningdek boshqa Bonuslar joriy qilishi ham mumkin.

3.2. Keshbek miqdori To'lov miqdoriga, Bonus miqdori Aksiyaning muayyan shartlariga bog'liq. Keshbek va Bonus miqdorini «Humans» bir tomonlama tartibda To'lov sanasiga yoki muayyan Aksiya shartlarida ko'rsatilgan harakatlar amalga oshirish sanasiga belgilaydi.

3.3. Keshbek va Bonuslar taqdim etilishi To'lov amalga oshirilgan yoki Aksiya shartlari bajarilgan sanadan boshlab «Humans» tomonidan bir sutka muddat ichida amalga oshiriladi. O'tkazilgan Keshbek va Bonuslar haqida ma'lumot Mobil ilovada aks etadi.

3.4. Ishtirokchiga Keshbek quyidagi shartlar bajarilganida taqdim etiladi:

- Ishtirokchi Hamkorga Tovarni qaytarmadi yoki Hamkor Ishtirokchiga pul mablag'larini qaytarib berishiga olib kelgan boshqa harakatlarni amalga oshirmadi. Agar Hamkor har qanday asosga ko'ra Ishtirokchiga Tovar uchun to'langan pul mablag'larini qaytargan bo'lsa, u holda Keshbek hisobga o'tkazilmaydi, o'tkazilgan Keshbek bekor qilinadi;
- Ishtirokchi To'lov amalga oshirgan Hamkor To'lov amalga oshirilgan sanasidagi Hamkor hisoblanadi;
- Keshbek taqdim etilgan vaqt Dasturning amal qilishi yoki Ishtirokchining Dasturda qatnashishi to'xtatilmagan;
- Keshbek taqdim etilganda, joriy kalendar oyida Mijoz tomonidan olingan Keshbekning umumiy miqdori 500 000 (besh yuz ming) dan oshmagan. Shu bilan birga, «Humans» aksiyalar, qoidalar va shunga tegishli hujjatlar asosida ushbu chegarani oshirishga haqlidir.

3.5. Ishtirokchiga, agar u Aksiya shartlarida ko'zda tutilgan harakatlar jamlanmasini to'liq bajargan bo'lsa, Bonus taqdim etiladi. Agar Aksiya shartlarida ma'lum harakatlar nafaqat Ishtirokchi, balki boshqa uchinchi shaxslar tomonidan amalga oshirilishi ko'zda tutilgan bo'lsa, bunday uchinchi shaxslarning barchasi kerakli bo'lgan harakatlar jamlanmasini amalga oshirishgan.

3.6. Ishtirokchi tomonidan ushbu Dastur shartlari yoki «Humans»ning «Tovar va xizmatlar vitrinasi» servisidan foydalanish Qoidalari har qanday tarzda buzilsa, «Humans» bir tomonlama tartibda Keshbek va Bonus taqdim etishni rad qilishga, shuningdek yuqorida ko'rsatilgan qoidabuzarliklar bo'yicha taxminlar tekshirilguniga qadar Keshbek va Bonus taqdim qilishni to'xtatib turishga haqli.

3.7. Ishtirokchiga Keshbek va Bonus «Humans» ixtiyoriy ravishda belgilagan shartli birliklarda, «so'mda» (UZS, Sum, So'm) taqdim etiladi. Taqdim etiladigan bonuslar pul mablag'lari, elektron pullar yoki pulning boshqa ekvivalenti hisoblanmaydi.

4. KESHBEK VA BONUSDAN FOYDALANISH QOIDALARI

4.1. Ishtirokchi o'ziga taqdim qilingan Keshbek va Bonuslardan faqat ushbu Dastur qoidalariga muvofiq foydalana oladi.

4.2. Keshbek va Bonusni «Humans» tomonidan belgilangan hamda Ishtirokchi buyurtma qilgan sanada mavjud bo'lgan Rag'batlantirishlarni qo'lga kiritish uchun foydalanish mumkin.

4.3. Keshbek hamda Bonus evaziga xarid qilish mumkin bo'lgan Rag'batlantirishlar ro'yxati Saytda va (yoki) Mobil ilovada e'lon qilinadi. «Humans» Rag'batlantirishlar ro'yxati va ularni qo'lga kiritish shartlarini bir tomonlama tartibda o'zgartirishi mumkin.

4.4. Har bir Rag'batlantirishga nisbatan unga ega bo'lish uchun zarur bo'lgan Keshbek va Bonuslar miqdori belgilangan. Agar Ishtirokchining Keshbek hisobidagi summa Rag'batlantirish olish uchun yetarli bo'lmasa, Ishtirokchi uni ololmaydi.

4.5. Agar Keshbek va Bonus miqdori Rag'batlantirish olish uchun yetarli bo'lsa, Ishtirokchi Mobil ilova orqali aniq Rag'batlantirishga buyurtma berishi mumkin. Bu holda Ishtirokchining Keshbek hisob balansi tegishli tarzda kamayadi.

4.6. Agar Ishtirokchi Rag'batlantirishdan foydalanish huquqini realizatsiya qilgunigacha Mobil ilovaning tegishli interfeyslaridan foydalangan holda undan voz kechsa, Rag'batlantirish bekor qilinadi va tegishli Rag'batlantirish uchun Keshbek va Bonus miqdori Ishtirokchining Keshbek hisobiga qaytariladi.

4.7. «Humans» oldin buyurtma berilgan Rag'batlantirishlardan voz kechishni taqiqlashga haqli.

4.8. Ishtirokchi Keshbek va Bonusni Dasturning boshqa Ishtirokchisi bilan bo'lishishga haqli. «Humans» bunday o'tkazmalarning shartlarini, jumladan boshqa Ishtirokchiga o'tkazilishi mumkin bo'lgan Keshbek va Bonusning eng kam va (yoki) eng ko'p miqdorini cheklashi mumkin. O'tkazma faqat Mobil ilovada amalga oshiriladi.

5. TOMONLARNING HUQUQLARI, MAJBURIYATLARI VA JAVOBGARLIGI

5.1. Tomonlar ushbu Dasturda ko'zda tutilgan, jumladan ushbu bo'limda quyida ko'rsatilgan huquqlarga ega va ulardagi majburiyatlarni bajarishi shart.

5.2. «Humans»ning majburiyatlari:

5.2.1. Agar Ishtirokchining texnik imkoniyatlari bo'lsa va u Dastur talablariga rioya qilsa, «Humans» uning Dasturga ulanishini amalga oshirishi shart.

5.2.2. «Humans» Mijozlarga Keshbek va Bonusni Dasturda belgilangan, jumladan muayyan Aksiyalar shartlarida joriy etilgan shartlar, tartib va muddat asosida taqdim qilishi shart.

5.3. «Humans»ning huquqlari:

5.3.1. «Humans» Aksiya va Rag'batlantirishlarni o'z ixtiyoricha o'zgartirish, qo'shish, olib tashlashga, shuningdek Aksiya va Rag'batlantirishlar shartlarini, shu jumladan ularni o'tkazish muddatlarini Mijozni oldindan ogohlantirmasdan o'zgartirishga haqli.

5.3.2. Ishtirokchining xatti-harakatlarida firibgarlik va/yoki ushbu Dastur qoidalarini buzish elementlari kuzatilganida yoki «Humans» ixtiyoriga ko'ra boshqa hollada surishtiruv ishlari olib borish davrida «Humans» Keshbek va Bonus taqdim qilish protsedurasini to'xtatib qo'yishga haqli.

5.3.3. «Humans» Ishtirokchidan To'lov amalga oshirganlikni hamda Ishtirokchining xatti-harakatlari vijdonliligini tasdiqlovchi hujjat va axborotlar rasman so'rab olishga haqli. So'rab olingan hujjat va axborotlarni Ishtirokchi so'rov olingandan sanadan boshlab 5 (besh) kundan kechiktirmagan holda taqdim qilishi shart.

5.3.4. Agar «Humans» hujjatlarni ko'rib chiqishda va axborotni tahlil qilishda Ishtirokchi tomonidan Dastur shartlari buzilgan yoki uning harakatlarida huquqni suiiste'mol qilish va insofsiz xulq-atvor belgilari bor, degan xulosaga kelsa, Ishtirokchiga qoidabuzishlar aniqlangan To'lov va Aksiyalar bo'yicha, shuningdek Keshbek va Bonus taqdim qilinishi to'xtatib qo'yilgan davr davomida amalga oshirilgan To'lov va Aksiyalar uchun Keshbek va Bonus berishni «Humans» rad qilishga haqli.

5.4. Ishtirokchining majburiyatlari

5.4.1. Ishtirokchi ushbu Dasturning shartlari, Aksiyalar shartlari, To'lov qilish shartlari, taqdim qilinadigan Keshbek va Bonuslar va ulardan foydalanish tartibi bilan diqqat bilan tanishib chiqishi, shuningdek Mobil ilovada avval e'lon qilingan shartlar o'zgarishi haqida ma'lumotni muntazam ravishda kuzatib borishi shart;

5.4.2. Ushbu Dastur talablariga to'liq amal qilish.

5.5. Ishtirokchining huquqlari:

5.5.1. Mobil ilovada Dastur shartlari, undagi o'zgarishlar, Keshbek va Bonus taqdim etilishi tartibi va Aksiya shartlari to'g'risida ishonchli ma'lumotlar olish, jumladan Mobil ilovaning maxsus bo'limi yoki Sayt orqali qo'llab-quvvatlash chatiga yozish.

5.5.2. Ishtirokchining huquqlari buzilganida «Humans»ga talabnoma bilan murojaat qilish. Talabnoma Mobil ilovada qo'llab-quvvatlash chati orqali Ishtirokchining huquqi buzilgan sanadan boshlab 10 (o'n) kun ichida jo'natiladi. Agar Mizoj Keshbek yoki Bonus taqdim etilgan sanadan boshlab 10 (o'n) kun ichida asosli talabnoma taqdim qilmasa, Keshbek yoki Bonus ushbu Shartlarga muvofiq amalga oshirilgan sanaladi, va Mijozning «Humans»ga nisbatan da'vosi bo'lmaydi.

5.6. «Humans»ning javobgarligi:

5.6.1. «Humans»ning ushbu Dastur shartlarini buzganligi uchun javobgarligi har bir Ishtirokchiga nisbatan 500 000 (besh yuz ming) so'm pul mablag'i bilan chegaralangan.

5.6.2. «Humans» Servis doirasidagi majburiyatlarning bajarilmagani yoki kerakli darajada bajarilmagani, shuningdek quyidagi hollarda keltirilgan zarar uchun javobgar emas:

Ishtirokchi yoki uchinchi shaxslarning «Humans», Hamkorlar yoki uchinchi shaxslar axborot xavfsizligi yoki ularning Dasturni tashkil etish uchun foydalanadigan uskunasi normal ishlashini buzilishiga qaratilgan g'ayriqonuniy harakatlari, jumladan asossiz qo'shimcha Keshbek va (yoki) Bonus olishga qaratilgan harakatlari natijasida yuzaga kelgan holatlar; Koddagi xatoliklar, kompyuter viruslari hamda «Humans» uskunasi dasturiy ta'minotidagi kodning boshqa begona qismlaridagi xatolar tufayli Mobil ilova faoliyatida ishdan chiqish holatlari natijasida yuzaga kelgan holatlar; Hamkorlarning uskunasi va/yoki dasturiy ta'minoti faoliyatidagi ishdan chiqish holatlari, shuningdek natijasida «Humans» Dasturga muvofiq o'z majburiyatlarini bajarish uchun kerakli axborotni olmagan Hamkorlarning boshqa harakatlari va/yoki harakatsizligi natijasida yuzaga kelgan holatlar;

6. DASTURNING AMAL QILISHI

6.1. Ushbu Dastur u Saytda e'lon qilingan vaqtdan boshlab kuchga kiradi.

6.2. Dasturni amal qilish muddati 2023-yil 31-dekabrgacha.

6.3. «Humans» bir tomonlama tartibda Dastur, Aksiya va Rag'batlantirishlar shartlarini istalgan payt, jumladan muddatidan oldin o'zgartirishga yoki amal qilishini to'xtatishga haqli. Dastur, Aksiya, Rag'batlantirishlarning o'zgarishi yoki amal qilishi to'xtatilishi haqida «Humans» Ishtirokchilarga Saytda va (yoki) Mobil ilovada xabar qiladi.

6.4. Dastur, Aksiya va Rag'batlantirishlarning amal qilishi «Humans»ning ularning amal qilishi to'xtagani haqidagi xabarida ko'rsatilgan sanadan boshlab to'xtatiladi.

6.5. Ushbu Dasturda tartibga solinmagan barcha savollar bo'yicha Tomonlar O'zbekiston Respublikasi qonunchiligiga tayanadi.